

“TA'LIM AL-MUTAALLIM” ASARIDAGI PAND-NASIHA TLAR
VA O'GITLARNING AHAMIYATI

Oriental universiteti Tarix fakulteti

TO'RAYEV DAVRONBEK REYIMBERGANOVICH

Annotatsiya: *Maqolada milodiy XII-XIII asrlarda yashab, ijod qilgan olim Burhoniddin al-Zarnujiyning “Ta’lim al-mutaallim” asarida ilm olishda zarur odoblar, pand-nasihatlari va o’g’itlar borasida so’z boradi va ularning dalillar, ishonchli manbalar yordamida asoslanishi ko’rsatib beriladi. Allomaning ushbu asari ilm olish yo’lidagi kalit asar sifatida asrlar osha kitobxonlar qo’lidan tushmay keladi.*

Tayanch so’zlar: *“Ta’lim al-mutaallim”, hadis, hol ilmi, Abu Hanifa, komil inson, vojib, maslahat,*

Insoniyat tarixi ilmiy jihatdan o’rganilar ekan, biror jamiyatda ilm va ilm egalari xor qilinsa, u barbod bo’ladi. Shunga ko’ra, har bir davrning ziyoli qatlami ilmning va olimlarning qadrini jamiyatda oshirishga harakat qilib, buning uchun har bir jihatga e’tibor qaratganlar. Hatto, ular ilm ahlining tashqi ko’rinishiga ham diqqat qilganlar. Tabiiyki, tashqi ko’rinish jamiyatning umumiy a’zolarida ilm va olimlar haqida ijobiy tasavvur shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli ham, ustozlar nafaqat o’zlarining tashqi ko’rinishlariga, balki shogirdlarini ham yaxshi ko’rinishga buyurganlar. Ayni shu jihatlardan ham “Ta’lim al-mutaallim” asaridagi pand-nasihati va o’g’itlarni tahliliy o’rganish maqsadga muvofiqdir.

Burhoniddin az-Zarnujiy “Ta’lim al-mutaallim”da ayni masalaga ham to’xtalib o’tgan. Xususan, u Imomi A’zam Abu Hanifa (r.a.)ning¹ o’z

¹ Imomi A’zam Abu Hanifa No’mon ibn Sobit al-Ko’fiy (80-150/699-767) ulug’ imom, fiqh, muhaddis, hanafiylik mazhabi asoschisi. “Al-Fiqh al-akbar”, “al-Musnad”, “Kitob al-Vasiyyat” kabi bir necha asarlari bor. Asarlari to’liq ravishda o’zbek tiliga tarjima qilingan. Markaziy Osiyo xalqlari islom dini amallarini u zot tuzgan mazhabga ko’ra ado qilib keladilar.

shogirlariga qilgan quyidagi nasihatini rivoyat qilgan: “Sallalaringizni katta qilib o‘ranglar va yenglaringizni juda keng qilinglar!”. Olim ushbu fikrni “Ilmga va uning ahliga hech kim bepisand va beiltifot bo‘lmasin” degan m’noda sharxlagan.²

Olim mavzuga doir fikrlarini qo‘llab-quvvatlash uchun dalillarni keltirishda ham muayyan mantiqiy tartibga rioya qilgan. Xususan, asarda oyatlar, hadislar, ayrim olimlarning nasihatlar va amaliy tajribaviy tavsiyalar keltirilgan. Jumladan, olim asarini Payg‘ambar (s.a.v.)ning quyidagi hadisi bilan boshlagan:

قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ : طَلَبُ الْعِلْمِ فَرِيضَةٌ عَلَى كُلِّ مُسْلِمٍ وَ مُسْلِمَةٍ.

Tarjimasi. “Ilm olmoq har bir muslim va muslimaga farzdir!”.

Ushbu dalil katta amaliy ahamiyatga egadir. Zero, ilm jamiyatning barcha jabhalari rivoji va taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Xususan, bu borada nafaqat erkaklar, balki, ayol-qizlarning ham ta‘lim olishi birlamchi darajadagi omillardandir. Shuning uchun ham, muammoning ushbu jihatiga Yangi O‘zbekistonda alohida ahamiyat berilib, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash uchun bir nechta me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5020-son Qarori 2021-yil 5-martda qabul qilindi³. Bular esa, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish va ta‘lim olishiga sharoitlarni kengaytirishga qaratilgan. Ayniqsa, “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham xalqparvar davlat barpo etishning bosh omili sifatida inson qadrini yuksaltirish

² Burhoniddin az-Zarnujij. Ta‘lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 13.

³ Qarang. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi davlat muassasasi. Rasmiy sayt. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5320582?ONDATE=01.04.2022%2000> (murojaat sanasi: 06.02.2024).

va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish belgilangan⁴. Buning asosiy negizini esa, yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash tashkil etadi. Olim insonlarni ularning salohiyati va ma'naviy dunyosi jihatidan uchga taqsimlagan: “komil inson, yarim inson va hech kim. Komil inson – haqiqatni topuvchi fikri bor kimsa va (boz ustiga) aqlli kishilar bilan maslahat ham qiladi. Yarim insonda to'g'ri fikr bor, lekin maslahat qilmaydi yoki maslahat qiladi-yu, o'zining to'g'ri fikri yo'q. Endi, maslahat ham qilmaydigan, o'zining bir fikri ham yo'q inson hech kimdir”⁵. Zotan, jamiyat a'zolarining ma'naviy darajasi uning taraqqiyotida muhim hisoblanadi. Jumladan, muallifdan ikki asr keyin faoliyat yuritgan Hazrat Amir Temur ham bu borada to'xtalib, shunday degan: “Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, jang ko'rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish buyuradi”⁶. Demak, ushbu masalaga doim e'tibor qaratib kelingan va olimning mazkur fikri qo'llab-quvvatlangani asardagi rivoyatlarning amaliy jihatdan asoslanganiga dalolatdir.

Olim mazkur hadisni keltirib, pedagogikadagi asosiy dolzarb masalalardan biri hisoblangan “*Nimani o'rgatish kerak?*” degan jihatga e'tibor qaratgan. Xususan, alloma ushbu muammoning yechimi sifatida “Bilginki, har bir musulmon ayol va erkakka barcha ilmni o'rganishligi farz bo'lmaydi. Balki, unga “Eng afzal ilm bu – hol ilmidir va eng afzal amal bu – holni saqlashdir” deyilgani kabi hol ilmini izlash farz bo'ladi”, degan fikrni ilgari surgan⁷. Darhaqiqat, insonning jismoniy qobiliyati va imkoniyati barcha ilmlarni qamrab olishga qodir emas. Bu esa, masalaning asrlar davomida

⁴ Qarang. 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayt. Rasmiy sayt. URL: https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144 (murojaat sanasi: 06.02.2024).

⁵ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 16.

⁶ Muahmmad Ali. Amir Temur solnomasi. – T.: Alisher Navoi nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – B. 46.

⁷ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 7.

dolzarb bo'lganiga dalolat qiladi. Shuningdek, ushbu fikr ma'yan bir jamiyatning sust bo'lgan sohasiga e'tibor qaratish lozimligiga ham ishora qiladi.

Burhoniddin az-Zarnujiy ilmda birlamchi nimaga e'tibor qaratish lozimligi borasida o'rganuvchi uchun quyidagicha tavsiya bergan: "Tolibi ilm har bir ilmdan eng chiroylisini va darhol din ishida ehtiyoj tushadigan bilimni tanlamog'i kerak bo'ladi. So'ngra (esa) kelajakda muhtoj bo'ladigan narsani tanlashi kerak"⁸. Demak, ilmda asosiy masala inson hayoti davomida foydasi bo'ladigan ilmni birlamchi o'rganishi lozim ekan. Bu borada esa, tajribasi katta va ilmi olimlardan maslahat so'rash maqsadga muvofiqdir. Muallif bu haqida ham to'xtalaib o'tgan: "Yana Imomi A'zam Abu Hanifa (r.h.): "Samarqand hakimlaridan bo'lgan bir hakimdan "Buxoroga ilm talabida ketayotgan bir tolibi ilm men bilan (uzoq) maslahat qilgan edi", deganini eshitgandim", degan". Bunga qo'shimcha ravishda Oli Imron surasi 159-oyat mazmuni bilan dalil keltirgan⁹. Zero, biror bir masalada sohaning yetuk mutaxassisi bilan maslahat qilish foydadan holi bo'lmaydi va kelajakda o'sha insonning jamiyatdagi o'rniga ham bevosita bog'liq sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010.
2. Muahmmad Ali. Amir Temur solnomasi. – T.: Alisher Navoi nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
3. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharh, 2005.
4. Ahmad Hayriy. "al-Imom al-Kevseriy"

⁸ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 15.

⁹ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 16.